

YURIDIK HUJJATLAR TARJIMASIDA TRANSFORMATSIYA MASALALARI

Farhod Eliboyev

TDSHU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqola yuridik hujjatlar tarjimasi jarayonida transformatsiya usullarining o'рни va muammolariga bag'ishlangan. Yuridik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari (aniqlik, standartlik, sinonimlarning yo'qligi) ta'kidlanib, huquqiy tizimlar farqi sababli to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish qiyinligi ko'rsatilgan. Tarjima nazariyasidagi transformatsiya turlari (transkripsiya/transliteratsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima, qo'shimcha kiritish, tushirib qoldirish, antonimik tarjima) yuridik matnlar misollarida tahlil qilinadi. Ushbu usullar huquqiy mazmunning pragmatik jihatdan to'liq, pragmatik va aniq yetkazilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, noaniqlik huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *yuridik tarjima, transformatsiya, yuridik terminlar, kalkalash, transkripsiya, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, qo'shimcha kiritish, antonimik tarjima, huquqiy tizimlar farqi.*

Yuridik terminlar normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyatini aks ettiruvchi maxsus tushunchalar sifatida ifodalanadi, terminologiya esa huquqning turli yo'nalishlariga (fuqarolik huquqi, jinoiyat huquqi, ma'muriy huquq va boshqalar) tegishli atamalar to'plamini bildiradi. Ushbu leksik birikmalar bir qator o'ziga xos belgilar bilan ajralib turadi: avvalo, ular professional doirada qo'llaniladigan to'g'ridan-to'g'ri ma'noga ega bo'lib, mutaxassislar uchun tushunarli bo'ladi; ikkinchidan, yuqori darajadagi aniqlik bilan xarakterlanadi, chunki har bir atama qat'iy belgilangan ta'rif (definitsiya) bilan bog'langan; uchinchidan, pragmatik jihatdan yagona standartlik xususiyatiga ega bo'lib, huquqiy hodisa yoki tushuncha (qonun hujjati, shartnoma yoki boshqa normativ akt shaklidan qat'i nazar) doim bir xil termin yordamida ifodalanadi, sinonimlar yoki turli variantlarga ruxsat berilmaydi.

Yuridik hujjatlar tarjimasi – bu nafaqat so'zlar va jummalarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, balki huquqiy mazmuni, qonunga oid atamalarni va madaniy kontekstni saqlab qolish jarayonidir. Bu yerda tarjima jarayonida “transformatsiya” tushunchasi muhim o'rin tutadi. “Transformatsiya - ikkilamchi til birliklarini (strukturalarini) hosil qilish usullaridan biri bo'lib, asosiy (yadro) modellarning qonuniy o'zgarishi orqali amalga

oshiriladi”¹. Yuridik terminlarning tarjimasi tarjima faoliyatining murakkab turlaridan biridir. U badiiy tarjimaga xos bo‘lgan ijodkorlik elementlarini va texnik tarjimaga xos bo‘lgan terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish zaruratini o‘zida mujassam etadi. Huquqiy hujjatlarni tarjima qilishda eng katta muammolardan biri ikki mamlakatning huquq tizimlari o‘rtasidagi sezilarli farqlardan kelib chiqadi. Bu holatda tarjima tilidagi huquqiy ifodalarning pragmatik jihatdan imkon qadar aniq, to‘liq va hech qanday ikkilanishga o‘rin qoldirmaydigan darajada bo‘lishiga juda katta ahamiyat berish lozim.

“Manba tilidagi ko‘plab iboralar tarjima qilinayotgan tilda aniq ekvivalentlarga ega bo‘lmaydi, shuningdek, yuridik hujjatning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli tarjima qo‘llanilmaydi. Shunday holatlarda tarjimon original iborani qayta ifodalab (parafraz qilib), uni shu shaklda qayta ishlab chiqaradi. Bunday vaziyatda tarjima jarayonining barcha bosqichlari qo‘llaniladi: tahlil, asl tarjima va umumlashtirish”².

“Tarjima nazariyasida ma‘noni qayta ifodalashning turli usullari ma‘lum bo‘lib, ularga kalkalash, transkripsiya, transliteratsiya, antonimik tarjima, qo‘shimcha kiritish, tushirib qoldirish va boshqa usullar kiradi”³. Ular matnning semantik va pragmatik ekvivalentligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Endi ushbu transformatsiya turlarini yuridik matnlardagi terminlar va iboralarni tarjima qilish misollarida ko‘rib chiqamiz. Yuridik sohada bu usullar nafaqat tilning grammatik va leksik xususiyatlarini, balki huquqiy tizimlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda qo‘llaniladi, chunki hatto kichik noaniqlik ham huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

1) Chet tilidagi so‘zni transkripsiya (ya‘ni so‘zning talaffuzini tarjima qilinayotgan til alifbosi vositasida ifodalash) yoki transliteratsiya (bir yozuv tizimidagi belgilarni boshqa yozuv tizimi belgilariga aniq mos holda ko‘chirish, bunda bir yozuv tizimidagi har bir belgiga boshqa yozuv tizimida doimiy ravishda bir xil belgi mos keladi) yo‘li bilan o‘zlashtirish.

The court's decision in this matter creates a binding precedent for all lower courts in similar disputes.

Ushbu ish bo‘yicha sudning qarori shunga o‘xshash nizolarda barcha quyi instansiya sudlari uchun majburiy huquqiy pretsedent bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Сов. энциклопедия, 1966. 608-с.

² Гамзатов М.Г. Английская и русская юридическая терминология в сравнительно-сопоставительном аспекте / М.Г. Гамзатов // Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 9. – 2007. – Вып. 2. – Ч. II. – С. 69.

³ Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. - М.: ЧеРо, 1999. - 136 с.

Mazkur termin lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz tilidagi ixtisoslashgan umumiste‘mol terminologiyasi guruhiga mansubdir. Uni rus tiliga o‘g‘irishda asl lotincha so‘zning talaffuzi saqlab qolinadi (ingl. [‘presidənt]).

2) “Kalkalash - o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til unsurlaridan foydalanib, yangi so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish”⁴. Kalkalash murakkab termin tuzilmasini ko‘pincha saqlagan holda, morfema bo‘yicha yoki so‘zma-so‘z tarjimini nazarda tutadi:

The principle of the rule of law is fundamental to any democratic society and ensures that everyone is equal before the law, protecting human rights from arbitrary power.

Qonun ustuvorligi printsipi har qanday demokratik jamiyat uchun asosiy hisoblanadi va har bir kishining qonun oldida tengligini ta‘minlaydi, shu orqali inson huquqlarini o‘zboshimchalikdan himoya qiladi.

Inglizcha “rule of law” iborasi “rule” (hukmronlik / hukmron bo‘lish) + “of” (ning / -i) + “law” (qonun) qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, bu klassik so‘z birikmasi kalkasi (phrasal calque) hisoblanadi: inglizcha tuzilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga ko‘chirilgan. Natijada “qonunning hukmronligi” ma‘nosi aniq saqlanib qoladi. O‘zbek tilida bu shakl keng tarqalgan va to‘liq o‘rnashgan, ammo rasmiy hujjatlarda (masalan, Konstitutsiyada) ko‘proq “qonun ustuvorligi” varianti qo‘llaniladi. Ikkala variant ham sinonim bo‘lib, xalqaro huquqiy kontekstda bir xil mazmunni ifodalaydi.

Human rights - inson huquqlari. Inglizcha “human rights” iborasi “human” (inson) + “rights” (huquqlar) so‘zlaridan hosil bo‘lib, bu ham klassik so‘z birikmasi kalkasi: har bir qism to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinib, inglizcha struktura saqlangan holda yangi o‘zbekcha atama yaratilgan. Xalqaro huquqiy hujjatlarda (BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va shartnomalar) shu shaklda qo‘llaniladi va o‘zbek tilida tabiiy ravishda o‘rnashib, milliy huquqiy terminologiyaning ajralmas qismiga aylangan.

3) Tavsifiy tarjima, odatda, tarjima qilinayotgan tilda mazkur tushunchaning ekvivalenti mavjud bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi:

Researchers analyzed trends in the seven index crimes to assess the impact of new policing strategies on public safety.

Tadqiqotchilar yetti asosiy ko‘rsatkich jinoyati (qotillik, zo‘rlash, talonchilik, og‘ir tajovuz, bosqinchilik, o‘g‘irlik va avtomobil o‘g‘irlash) bo‘yicha tendensiyalarni tahlil qilib, yangi politsiya strategiyalarining jamoat xavfsizligiga ta‘sirini baholadilar.

Ushbu misolda “index crime” atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, u AQShda eng keng tarqalgan jinoyatlar ro‘yxatini anglatadi. Ro‘yxatda uchta shaxsga qarshi va to‘rtta mulkka qarshi jinoyat mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent yo‘q, chunki

⁴ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 164-b.

O'zbekiston huquq tizimida bunday tushuncha mavjud emas. Shu sababli tarjimada jinoyatlarni alohida sanab o'tish zarur bo'lgan.

4) Qo'shimcha kiritish - maksimal kommunikativ natijaga erishish maqsadida izohlar kiritishni nazarda tutadi:

The respondent was found guilty of contempt of court under Rule 42 of the FRCP.

Javobgar shaxs sudga hurmatsizlik jinoyatida aybdor deb topildi, bu AQSh Federal Jinoyat-protsessual qoidalarining 42-qoidasiga muvofiq baholandi.

“AQSh Federal Jinoyat-protsessual qoidalari” deb qo'shimcha qilingan, chunki FRCP o'zbek auditoriyasi uchun notanish va qaysi mamlakat qonunchiligiga tegishli ekanligini tushuntirish zarur.

5) Semantik jihatdan ortiqcha so'zlarni tushirib qoldirish. Bu usul tarjima tilida ma'lum ibora yoki atamaning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmaganda yoki uni saqlash matni keraksiz ravishda uzaytirib, og'irlashtirganda qo'llaniladi. Natijada, mazmun saqlanib qoladi, lekin ortiqcha takror yoki notabiiy ifoda olib tashlanadi.

In family court proceedings involving child custody disputes, the judge may appoint a guardian ad litem to investigate the child's living conditions and recommend what arrangement serves the child's best interests.

Bolalar huquqlari bo'yicha sud jarayonlarida, ota-ona huquqi nizolari paytida sudya bola yashash sharoitlarini o'rganib chiqish va uning manfaatlariga mos keladigan tartibni tavsiya qilish uchun vakil tayinlashi mumkin.

Asl matnda “guardian ad litem” lotincha iborasi qo'llangan (so'zma-so'z ma'nosi: sud ishida vakolatli vasiy), biroq bu atama o'zbek yuridik leksikasida mavjud emas. Shu sababli matnda ortiqcha ifodaga yo'l qo'yimaslik va hajmni oshirmaslik maqsadida ushbu iborani tushirib yuborish usuli maqbul hisoblanadi.

6) Antonimik tarjima - bu so'z yoki iboraning teskari (qarama-qarshi) ma'noli so'z/frazasini ishlatish usuli bo'lib, ma'noning yo'qolishini qoplash uchun majburiy kompensatsiya (masalan, qo'shimcha so'zlar, zarralar yoki sintaktik o'zgartirishlar) talab etiladi.

Bu usul ingliz tilidagi salbiy konstruktsiyalarni (not ... until, not ... unless va h.k.) o'zbek tilida ijobiy (tasdiq) shaklga o'tkazishda qo'llaniladi, chunki to'g'ridan-to'g'ri tarjima tabiiy chiqmaydi yoki og'ir bo'ladi. Kompensatsiya orqali asl mazmun saqlanib qoladi.

The contract shall not be terminated unless both parties agree in writing.

Shartnoma faqat ikkala tomon yozma ravishda rozilik bergandagina bekor qilinadi.

Bu yerda “not ... unless” salbiy strukturasi ijobiy “faqat ...gina” ga o'zgartirib, ma'noni (shartnoma bekor qilinmaydi, agar rozilik bo'lmasa) saqlab qolish uchun “faqat ...gina” kompensatsiyasi qo'llanilgan.

Yuridik sohada tarjima jarayonining o'ziga xos jihatlariga qaratilgan alohida e'tibor, asosan, yuridik hujjatlarning tarjimalarida aniqlik va ekvivalentlik darajasining huquqiy kelishuvlarning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi, shuningdek, davlatlararo munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik sohalar orasidagi sezilarli farq jamiyat va tilning tarixiy evolyutsiyasini, hamda O'zbekistonda va ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda huquqshunoslikning madaniy va huquqiy an'analaridagi o'ziga xosliklarni aks ettiradi. Bu farqlar tarjima jarayonida terminologik va semantik moslikni ta'minlashda murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия, 1966. 608-с.
2. Виноградов В.С. Проблема эквивалентности и тип переводимого текста // Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – 2001. 18-24 с.
3. Beyer V.L., Conradsen K. - Translating Japanese legal documents into English: A short course // Translation and the Law. 1995. – VIII. 145-178 p.
4. Engberg J. - Legal meaning assumptions – what are the consequences for legal interpretation and legal translation? // International Journal of the Semiotics of Law. 2002. № 15. 375-388 p.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 164-b.
6. Beyer V.L., Conradsen K. - Translating Japanese legal documents into English: A short course // Translation and the Law. – 1995. – VIII. 145-178 p.
7. Weston M. An English reader's guide to the French legal system. – New York/Oxford: Berg, 1991. 23-p.